



Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 APREL
№27**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
16 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-16**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-16**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 30 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Ikromova Intizor O'ZBEKISTON OLIMLARI VA YOSHLARNING INNOVATSION ILMIY AMALIY TADQIQOTLAR	7
2. Turdiyev Baxtiyor BOSHLANG'ICH SINFLARDA MEHNAT TA'LIMI VA TARBIYASINING VAZIFALARI	9
3. Muydinova Hayotxon, Tairova Marg'uba KASB TUSHUNCHASI VA KASB TANLASH UCHUN O'QUVCHIDAGI IMKONIYATLAR	10
4. Tanyakov Muxit Jalgashevich, Sharipov Quдрat Yuldashevich TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISH METODIKASI PEDAGOGIKA FANINING TARMOQLARIDAN BIRI SIFATIDA.....	12
5. Ешмуратов Марат Тангатарович ГУШТ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА МАХСУЛОТЛАРИДА МАХСУЛОТНИ КАЙТА ИШЛАШ.	14
6. Эрназарова Н.Н., Курбанова М.М. СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ	16
7. Мухамадиев Н.Р., Анорбоев Ш. О ПЕРСПЕКТИВЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КРЕМНЕСОДЕРЖАЩИХ МИНЕРАЛЬНЫХ НАПОЛНИТЕЛЕЙ В ПРОИЗВОДСТВЕ КОМПОЗИЦИОННЫХ ВЖУЩИХ	18
8. Хамидов Дилшод Алишерович, Абдукаюмов Аюбхон Мелисович РАДИОАКТИВНЫЕ ПРЕПАРАТЫ НА ОСНОВЕ РАДИОНУКЛИДА	22
9. Хамидов Дилшод Алишерович, Хужаев Саидахмад СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЯДЕРНОЙ МЕДИЦИНЫ.....	24
10. Абраева Махлиё Олимжон кизи РАЗБИЕНИЕ ЗНАЧЕНИЙ ПРИЗНАКОВ НА ИНТЕРВАЛЫ	25



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

О'ЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА YOSHLARNING INNOVATION ILMIY AMALIY TADQIQOTLAR

Ikromova Intizor

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”
kafedrasi I bosqich talabasi +998883223130

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’qituvchi va o’quvchilarni innovatsion g’oyalarni yanada boyitishga vatanimiz kelajagi uchun muhim bo’lgan, ishlarni amalga oshirish bo’yicha qilingan va qilinishi kerak bo’lgan ishlar haqida.

Kalit so’zlar: Ta’lim uchun muhim bo’lgan yangiliklar, o’quvchilarni kelajakka tayyorlash, to’g’ri ta’lim tarbiya berish, olimlarimizni inson manfaatlarini uchun muhim bo’lgan ixtirolari, kelajagimiz ravnaqi.

Muxtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” da yil nomlanishini izohlar ekan, quyidagicha qisqa va lo’nda izoh berdi: “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo’lsak uni aynan innovatsion go’yalar innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”.

Dastur doirasida amalga oshirayotgan ishlar olimlar va o’qituvchilar oldiga sifatli ta’limni va sifatli ishlab chiqarishni ta’minlash o’quvchilarning bilim olish huquqlarini, insonlar manfaatini to’liq ro’yobga chiqarishdek ma’suliyatli vazifani qo’yadi. Buning uchun esa o’qituvchilarimiz innovatsion va axborot texnologiyalariga doir malakalarni yanada rivojlantirishi innovatsiyalar bilan ishlash kompetentligiga ega bo’lishi zarur.

Negaki, bugun bolalar juda tez va ilg’or fikrlamoqda. Darslarni ularning talabiga mos – yuqori darajada tashkil etish uchun o’qituvchi taraqqiyotdan ortda qolmasligi turli innovatsion g’oyalar o’ylab topishi zarur. Zamom tezlashib borayotgan paytda olimlarimiz esa jamiyatimiz uchun muhim bo’lgan turli innovatsion g’oyalarga mos axborot texnologiyalar o’ylab topishi lozim.

Toshkentdagi talabalar shaharchasida innovatsiyalarni tadbqiq etish ilmiy – amaliy markazi barpo etilishi haqida e’lon qilgan Sh.Mirziyoyev, „Xalqimiz dunyo qarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo’lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo’lmaydi. Bu sohada o’zgarishlarni xalqimizga keng targ’ib qilmasak, bugungi davr shiddati, fan – texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo’lolmaymiz”, - degan edi.

“Faol tadbirkorlik, innovatsion g’oyalar va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilingach, mamlakatda “Innovatsiya” so’zi ko’p yangray boshladi, oynai jahonda ham, elektron va bosma nashrlarda ham, radio orqali ham hatto, aksariyat vazirliklar yillik ish dasturlarida ham aynan shu vaqtgacha bizga deyarli notanish bo’lgan “Innovatsiya” so’zini uchratish mumkin.

E’tibor bersak turli sohalarda o’qiydigan tengdoshlarimiz davrasida ham bu so’z tez-tez tilga olinib boshladi. “Innovatsion g’oya” berish topshirig’ini olgan aksariyat fuqarolar bu so’zning ma’no–mazmuni, mohiyatini to’liq anglaganini yo’q., „Innovatsion g’oya” o’zi nima? – degan savol bilan bir – biriga murojaat qilayotgan fuqarolar soni ko’payib bormoqda. Innovatsion o’zgarishlarning aksariyat qismi hayotimizga sanoat tovarlari bilan kirib kelmoqda. Misol uchun zamonaviy televizorlar, uyali aloqa vositalari yangilikka misol bo’la oladi. Turli innovatsiyaga moslashgan tadbirkorlar korxonalari ko’paymoqda. Chet ellardan ham yangi innovatsion g’oyalarni almashish maqsadida hamkorlik qiladigan tadbirkorlar ko’paymoqda. Bu innovatsion g’oyalar ishlab chiqarishga doir bo’lsa, yurtimizda ta’lim sohasi bo’yicha yangi innovatsion g’oyali dasturlar ishlab chiqarish ta’lim sohasiga kirib keldi. Masalan, Fillandiya ta’lim sohasidan o’rnak olish maqsadida maktablarda faqat fanni o’rgatibgina qolmasdan, uni qiziqishga e’tibor berib,



turli kasb va hunarlarga yo`naltirish maqsadida o`quvchilardan turli kasblardan mutaxassislar jalb qilinib, maktablarda o`quvchilarni yangi innovatsion g`oyalar asosida ta`lim-tarbiya berilmoqda. O`zbekiston yangicha raqamli innovatsion texnologik g`oyalar asosida ham o`quvchilarga Yangi ta`lim berish juda samarali hisoblanib undan har bir o`quvchi to`g`ri foydalana olishi uchun maxsus mutaxassislar jalb etilishi lozimligini olimlarimiz ham ta`kidlab o`tmoqda. Hozirda texnika rivojlanadigan bir paytda har bir sohada yangicha innovatsion g`oyaga ega bo`lgan texnikalardan ishlab chiqarilishi muhim deb bilgan olimlarimiz yoshlar talabiga ularga qulay va zamon talabagiga mos bo`lgan texnikalarni ishlab chiqarmoqdalar. Bu texnikalar yurt kelajagi yoshlarni bilim olish yo`lida xizmat qilishi uchun bo`lmoqda. Innovatsiyani maqsad erishish sifatida olib qaraydigan bo`lsak, maqsad inson ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Demak, innovatsion g`oyalar orqali biz o`tmishni emas, balki kelajakni yaratishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib qanchadan qancha, Yoshlarning innovatsion g`oyalari va texnologiyalarini qo`llab – quvvatlash namoyish” lari tashkil etib kelinmoqda.

Innovatsiyalarni paydo bo`lishi ortida – uzoq yillar davomida amalga oshirilgan o`ta mashaqqatli mehnat yotadi. Ammo ko`pincha innovatsiyalarni yaratishdan ko`ra, uni singdirish o`ta qiyin masalaga aylanadi. Prezident Sh. Mirziyoyev O`zbekistonda innovatsiyalarga “Yashil chiroq” ni yoqish maqsadida, O`zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to`g`risida” gi farmonni imzoladi. Bugungi kunda O`zbekistonni kelajakda boy qiladigan tadbirkorlik sohasini misol tarzida oladigan bo`lsak, o`z biznesida yangi no`anaviy yoxud bozorda innovatsion g`oyaga mos bo`lgan yangi tovarni taklif qilgan tadbirkor xaridorlar e`tiborini qozonish singari noyob imkoniyatlarga ega bo`ladi. Bir so`z bilan aytganda 21- asrda o`tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda ilk marta paydo bo`lgan “Innovatsiya” atamasidan to`g`rirog`i o`zgarishlardan qo`rqish kerak emas. Negaki innovatsiya bu – ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko`rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishni ta`minlashga qaratilgan yangilikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov. I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolarlari. T., “O`zbekiston”, 1997. 10.
2. Karimov. I.A. O`zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., “O`zbekiston”, 1995.
3. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. T., ‘O`zbekiston”, 2017.
4. Boshlangich ta`lim. T., “Ozbekiston”, 2019.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MEHNAT TA'LIMI VA TARBIYASINING VAZIFALARI.

Turdiyev Baxtiyor

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
35-umumiy o'rta ta'lim maktabi
texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqola maktab o'quvchilariga texnologiya fanini o'qitish haqida.

Kalit so'zlar: texnologiya, texnik xavfsizlik, mehnat xarakteri, kasbga tayyirlash.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, mehnatning xarakteri va mazmuniga, insonni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo'yadi. Shunga ko'ra har bir kishini hayotga tarbiyalashda aniq o'zgarishlar qilishi lozim. Har bir o'quvchida zamonaviy ishchi shaxsining sifatlarini shakllantirish uchun maktabning boshlang'ich sinflarida va hatto ilgariroq maktabgacha muassasalarda, keyinroq maktabdan yuqori sinflardagi talim va tarbiyani rivojlantirish, keyinchalik kasb-hunar kollejlarda o'z bilimlarini davom ettirishlari lozim. Butun kuch va qobiliyatlarini siyosiy bilim doiralarini kengaytirish, zamonaviy bilim bilan qurollantirish va jismoniy mehnatni har tomonlama uyg'unlashtira olishga o'rgatishdan iboratdir.

Mehnat ta'limi va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang'ich maktablarda butun ta'lim va tarbiya tizimida hamda barcha o'quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o'rinda mehnat darslari yetakchi rolga o'ynaydi. Maktabda muntazam mehnat ta'limining boshlang'ich bosqichi boshlang'ich sinflarda mehnat darslarida va kichik maktab yoshidagi bolalarni qo'lidan keladigan ijtimoiy foydali ishdur.

Boshlang'ich maktabdagi mehnat ta'limining asosiy vazifalari mehnatga axloqiy va ruhiy tayyorlash, o'quvchilarni boshlang'ich politexnik bilimlar bilan qurollantirish, mehnatga amaliy tayyorlashlardan iboratdir. Mehnatga axloqiy tayyorlash – Ukuvlarga jamoada ishlashni, o'zaro do'stona yordamni, ijodiy tashabbuskorlikni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish, mehnat kishilari va mehnat natijalarini xurmat qilishga o'rgatishdan iboratdir. Mehnatga ruhiy tayyorlash. Mehnatga ruxiy tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun tahlim va tarbiyaga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir.

Mehnatga ruhiy tayyorlash – ukuvchilarni mehnatga ruhiy tayyorlash va unda mehnatga nisbatan uning yoshiga mos keluvchi ongli va ijobiy musbatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishini shakllantirishdan iboratdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnatning yaxshi tomonlarini singidirishdir. Bolalarni mehnatga qobiliyati har bir kishi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashish zarurligini anglashlari juda muhimdir.

Mehnat ruxiy tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirishni va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib-anglash, psixomotor, emotsional idrok, diqqat, xotira, taffakkur mehnatning psixologik komponentlaridir. Mehnatga o'rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Texnologiya o'qitish metodikasi. Toshkent 2018



KASB TUSHUNCHASI VA KASB TANLASH UCHUN O'QUVCHIDAGI IMKONIYATLAR

Muydinova Hayotxon, Tairova Marg'uba

Andijon viloyati Jalaquduq tumani

13 – umumiy o'rta ta'lim maktabi

texnologiya fani o'qituvchilari

Tel: 93 781-83-92

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir o'quvchi kasbni to'g'ri tanlash uchun ishlarni rejali amalga oshirish, farovon hayot kechirish uchun yetarli bilim va mehnatsevarlik, tirishqoqlik kabi fazilatlarga ega bo'lishi, turli istiqbolli soha va mutaxassisliklar bilan tanishib borishi, kasbiy yo'nalishdagi kitoblarni o'qib o'rganishi haqida tushunchalar berib boriladi.

Kalit so'zlar: imkoniyat, istak va xohish, professional, zaruriy shartlar, muvaffaqiyat, dinamik jarayon.

Kasb tushunchasining nima ekanligini kundalik hayotimizda uchraydigan tushunchalar asosida anglashga harakat qilib ko'raylik.

Kundalik faoliyatimizda kim bilan muloqot qilsak yoki tanishishni istasak har doim bizni “u kim bo'lib ishlaydi?“, degan savol qiziqtiradi. Yoki biror inson bizda havas uyg'otsa uning kasbi nima ekanligi qiziq tuyuladi. Bu bejizga emas. Har qanday shaxs hayotining xotirjamligi va moddiy farovonligining asosi uning kasbidir. Har qanday inson o'z hayotida muvaffaqiyatga erishishni xohlasa u to'g'ri tanlangan o'z kasbining egasi bo'lishi kerak. Har qanday muvaffaqiyatga erishganlar o'zining kasbidan fahrlanishi shart. Buning uchun kasbning nima ekanligini yuzaki emas, chuqur his qilgan holda tushunib olish talab etiladi.

Kasb tushunchasiga ta'rif beraylik. KASB – ma'lum darajada tayyorgarlikni talab etadigan, davlatning qonun xujjatlarida ta'qiqlanmagan, bajaruvchiga iqtisodiy foyda keltirish imkoniyati mavjud bo'lgan (shaxsning) alohida faoliyat turidir.

Ta'rif kasb tanlash uchun zarur bo'lgan asosiy tamoyil'larni o'z ichiga olgan. Ya'ni: birinchisi – tayyorgarlik, ikkinchisi – qonuniylik, uchinchisi – foydalilik, to'rtinchisi – ixtiyoriylik, beshinchisi – alohidalik tamoyilidir.

Har bir o'quvchi kasb tanlashni rejalashtirar ekan, quyidagi savollar qiziqtiradi, albatta. Yaxshi kasb tanlash uchun imkoniyat yetarlimi? Imkoniyat nimani anglatadi? U qanday o'lchanadi? Imkoniyat har bir shaxsda bo'ladimi? Uni kengaytirish mumkinmi? Buning uchun nima ishlar bajarish kerak?

Albatta, farovon hayot kechirish uchun inson yetarli bilim, mehnatsevarlik, tirishqoqlik kabi fazilatlarga ega bo'lishi zarur. Ularni yuzaga chiqishi uchun esa xohish, istak va iroda bo'lishi barchaga ma'lumdur. Biror shartlarni qondiradigan sharoit bu – imkoniyat deb ataladi. Demak, xohlagan paytda sharoitning yaratilishi, bu imkoniyatning yaratilishidir. Xohish va istakni “yetarli” shartlar desak, unda “zaruriy” shartlar ham talab etiladi. Ular quyidagilardir:

Birinchi shart - o'quvchida tegishli bilim manbalarining mavjudligidir. Bu manbalarga ustoz-murabbiy suhbat, kitoblar, oynoma va ro'znomalar, internet kabilar kiradi. Bu sharoitning bo'lishi sizga kasb tanlash bo'yicha bilimlarning aslini beradi.

Ikkinchi shart- mehnatsevarlikni namoyon etish uchun uni ro'yobga chiqaruvchi shart-ruhiy ilhomlanishdir. Ruhiy ilhomlanish insonga zavq beradi, ulug'laydi, yuksaklikka ko'taradi, shon-sharaf keltiradi. Ilhomlanish o'z kuchingizga, maqsadingizga ishonishingiz natijasida paydo bo'ladi. Inson mehnat qilishi uchun katta kuch zarur. Umri davomida kimdir o'z nomini qolishini istaydi. Kimki o'z nomini qoldirsa demak uning ruhi abadiy yashaydi. Oquvchilarni ruhlantirish maqsadida buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'beklarning buyuk xizmatlari haqida gapirib berish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi shart – tirishqoqlik. Tirishqoqlik – biror ishni amalga oshirayotganda, toki u muvaffaqiyatli natijaga erishgunga qadar shaxs tomonidan ushbu ishni bajarishga ko'p marta urinishdir. Masalan, o'quvchi biror bir rasmni chizmoqchi. Bu mashg'ulot o'ziga yarasha bir muddat mashaqqatli mashg'ulotni talab qiladi. Yosh rassom tirishqoq bo'lmasa maqsadga erisha olmaydi. Kimdir bu mashg'ulotni uddalab, uni san'at asari darajasiga yetkazishi mumkin. Nima

¹ Tamoyil- eng asosiy qoida, biror qonun, tartib, nazariyaning boshlang'ich asosi



uchun? Buning sababi – rassomda aniq maqsad, qiziqish va qobiliyat kabi xususiyatlarning rivojlanganligidadir. Bunday xususiyatlar rassomni yuqori cho'qqilarni egallashga undaydi.

Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb nafaqat daromad topish manbayi, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat hamdir.

Psixologlar bunday mas'uliyatli qaror qabul qilishda atrofidagi insonlar tavsiyasiga tayanib emas, tahlilning boshqa usullarini qo'llashni taklif etadi. Inson o'zida qaysi kasbga moyillik va qiziqish kuchli ekanini psixologik testlar orqali aniqlashi mumkin. Unda, asosan, professional testlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Test natijalari kasb turiga moyillik yo'nalishini belgilashga xizmat qiladi.

O'quvchi turli istiqbolli soha va mutaxassisliklar, kasbiy yo'nalishlar haqida bilimlarni oshirib borishlari juda zarur. Maktab o'quvchilariga ko'plab tarmoq yozib borayotgan va tanish bo'lmagan kasblar bilan tanishish uchun kasbga yo'naltirish bo'yicha kitoblar nashr qilingan. Turli ixtisoslashgan maktablar va o'quv kurslari mavjud bo'lib har bir o'quvchi o'zini sinab ko'rish imkoniyatini beradi.

Maktabni bitiruvchi o'quvchilar ko'pincha kasb turlari haqida noto'g'ri tushunchaga ega bo'ladi. Ularga kasbning ijobiy yoki salbiy tomonlarigina ko'rinadi. Bunday vaqtda ota-onalar farzandlariga bu haqida ko'p ma'lumotlarni berishi maqsadga muvofiqdir.

Kasb tanlashdagi yana bir imkoniyatlardan biri bu – kasbga oid reja. Reja insonning kelajagi haqidagi tasavvuridir. Shuning uchun uning tuzilishi o'quvchining o'ziga va uning bilim va tajribasiga bog'liq.

Rejalashtirish bir necha o'n yil, bir necha oy va yil, bir necha kun va haftalik bo'lishi mumkin. Tuzilayotgan reja xato bo'lsa uni to'g'rilash mumkin. Oldin asosiy maqsadni belgilash, unga erishishning eng samarali yo'llarini o'ylab ko'rish kerak bo'ladi. Rejaga maqsadga erishishning bir necha yo'llari kiritilgan bo'lishi zarur, chunki inson hayoti o'zgaruvchan, kutilmagan holatlar yuz berishi tabiiy hol. Kasbiy rejani tuzish uchun mashhur psixolog Y.A. Klimov tomonidan tuzilgan jadvaldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Rejada taxminiy muddatlar belgilanib, belgilangan oxirgi muddat o'quvchi uchun qat'iy chegara bo'lib xizmat qilishi kerak bo'ladi. Rejada asosiy maqsad ko'rsatiladi.

- Unda nima ish bilan shug'ullanish, qayerda va qanday bo'lish, kim bo'lishi, nimaga erishishi;
 - Maqsadga erishish yo'llari va usullari: yordamchi adabiyotlardan foydalanish, kasb egalari bilan suhbatlashish, o'z – o'zini tarbiyalab borish;
 - Turli to'siqlar: qiyinchiliklar, qarshiliklar;
 - maqsadga erishish uchun imkoniyatlar: sog'ligi, sabr, amaliy va nazariy mehnatga moyillik;
- Kasb tanlashda vaqt muhim omil hisoblanadi. Qiziqish va qobiliyatni bilish uchun ajratilgan vaqt katta ahamiyatga ega.

Kasb tanlashda quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak:

- kasb tanlash murakkab dinamik jarayon. Buning ma'nosi kasbni tanlashda boshqa kasblarning paydo bo'lishi yoki ularga ehtiyojning yo'qolib borishi jarayonlarini e'tiborga olish zarur bo'ladi;
- kasb tanlashda vaqt muammosi mavjud. Ushbu muammo kasbni tanlash uchun reja ishlab chiqilishi va u rejaga rioya etilishi bilan bartaraf etiladi;
- kasb tanlashni muhim bir jarayon sifatida shakllantirib bu jarayonni boshqarish uchun imkon yaratilishi zarur;
- kasb tanlash jarayoni cheksiz davom etishi mumkin emas, aks holda bunday jarayon insonda loqaydlikni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun kasb tanlash jarayoni tugallanishining vaqtini oldindan belgilab, reja tuzib olish zarur bo'ladi.

Xulosa o'rnida, asosiy maqsadimiz o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ularning qiziqishlari, moyilliklari, layoqati hamda shakllangan qobiliyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashishdan iboratdir. Bu jarayonda ular xalq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa sohalarga tegishli kasblar va ularga ehtiyojlar, shuningdek, mehnat bozorining kadrlarga bo'lgan talablari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Kasb-hunarga yo'naltirish ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishining uzviy qismi sanaladi. Zero, kasbga yo'naltirish bugungi yangi o'quv dasturining asosiy maqsadlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Texnologiya" 9-sinf. "O'zbekiston" 2019-yil.
2. Anvar Jalolov - "Kasb qanday tanlanadi?". Toshkent "Yangi asr avlodi" 2010-yil.
3. Internet ma'lumotlari.



TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISH METODIKASI PEDAGOGIKA FANINING TARMOQLARIDAN BIRI SIFATIDA

Tanyakov Muxit Jalgashevich

Urganch tuman 27-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 791 34 08

mj_tanyakov@inbox.uz

Sharipov Quadrat Yuldashevich

Yangibozor tumani 29-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (91) 427 28 22

sq_yuldashevich2822@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitish metodikasi pedagogika fanining tarmoqlaridan biri sifatidagi pedagogik jarayon haqida

Kalit so'zlar: Texnologiya, umumtexnika fanlari, texnik, mexanika asoslari, mashinasozlik asoslari, elektrotexnika, elektronika asoslari.

Texnologiya fani ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash o'quv rejasida umumiy ta'lim fanlari va mahsus fanlarda o'qitish nazarda tutilgan. Mahsus fanlarga umumtexnik, texnika va pedagogika fanlari kiradi. Umumtexnika fanlariga texnik mexanika asoslari, mashinasozlik asoslari, elektrotexnika va elektronika asoslari kirib, texnik fanlar bo'yicha bilim egallashga asos bo'ladi. Chizmachilik va chizma geometriya, materialshunoslik, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish asoslari, ishlab chiqarishni tashkil etish va uning ekonomikasi asoslari, elektromantaj ishlari va elektr bilan ishlaydigan maishiy asbob (pribor)lar va boshqa texnik fanlar jumlasiga kiradi.

O'qituvchining psixologik-pedagogik jihatdan tayyorgarligi psixologiya, pedagogika, texnologiya va kasb ta'limi metodikasi, chizmachilik va rasm o'qitish metodikasi, maktab gigiyenasi kabi fanlarni o'rganishda amalga oshadi. Shunday qilib, texnologiya fani o'qituvchisini tayyorlashda "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" ixtisoslashtiruvchi fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu fanlar boshqa fanlarni pedagogika, psixologiya va hokazolarni takrorlamaydi, balki ular bilan yaqin bog'lanishda bo'ladi. "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" kursi o'rganish, umumiy ta'lim maktabidagi texnologiya fanining (mehnat tarbiyasi, politexnik ta'lim, kasbga yo'llash va hokazolarning) maqsad va vazifalarini, shu fan bo'yicha o'quv jarayonini tashkiliy prinsiplarini va uning mazmunini anglab olinishi, maktab ustaxonalarida ta'lim tarbiya jarayonini muvoffaqiyatli olib borishda yordam beradigan metodik vositalar sistemasi sifatida o'rganilishi lozim.

"Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" alohida roli shuki, o'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida ular mehnatga ongli munosabatni tarkib topishi uchun ob'ektiv qulay sharoit vujudga keladi. Bo'lajak o'qituvchiga yana shu sharoitdan qanday qilib to'la foydalanishni ko'rsatish modulning vazifalaridan biridir.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi pedagogika fanining tarmog'i sifatida o'z ob'ektlari, vazifalari va tadqiqot metodlariga ega. Texnologiya ta'limi jarayoni, shu jarayonning hamma jihatlarini; o'quv materialining mazmuni, o'qitish metodlari, o'quvchilarning bilish faoliyati, o'qitish natijalari va boshqalar o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Pedagogika fanining tarmog'i sifatida texnologiya fanini o'qitish metodikasi oldiga qo'ygan asosiy tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Kuzatish. Kuzatish jarayonida tadqiqotchi o'quv jarayonining borishiga aralashmay, faqat nima sodir bo'layotganini qayd qilib boradi. Tadqiqotchi oldindan kuzatishning maqsadi, vazifasi va metodikasini belgilab oladi. Eksperiment. Eksperiment kuzatishdan farqli ravishda tadqiqotchi tomonidan vujudga keltirilgan jiddiy, aniq sharoitda o'tkaziladi.

Eksperimentda vaziyatni keraklixa takrorlash mumkin. Tajriba avval kichik guruhda, so'ng sinfda, bir necha sinf va maktablarda o'tkaziladi. Natijaning samaradorligi haqida xulosa chiqariladi.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish. Ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, uni umumiy tahlil qilish o'quv jarayonini samarali tashkil etishga oid tavsiflarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ilg'or tajribani kuzatish, o'qituvchilar bilan suhbatlashish, o'quvchilarning



ishlari bilan tanishish va boshqa yo'llar bilan o'rganish mumkin. Ilg'or tajribani o'rganish va tarqatishda pedagogik o'qishlar muhim rol o'ynaydi.

Nazariy tadqiqotlar. Metodikani ishlab chiqishda kuzatish metodlari yoki eksperiment yo'li bilan tadqiq qilib bo'lmaydigan malakalarni xal qilishga ham to'g'ri keladi. Masalan, o'quv materialining mazmunini asoslash amaliyotda to'plangan bilim va malakalarning tegishli kompleksini o'rganishdan boshlanadi. Bu holda tadqiqot analiz metodi bilan o'tkaziladi, ya'ni bilim va malakalarning butun kompleksi ajratiladi. So'ng hamma eksperimentlar ichidan o'quv dasturi mazmuniga kiradiganlari tanlab olinadi. Ya'ni analizga teskari jarayon-sintez sodir bo'ladi. Analiz va sintez nazariy tadqiqot metodlaridandir. Demak, metodika mustaqil tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga boshqa fanlar bilan chambarchas bog'langan holda, hamkorlikni amalga oshiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.
2. Tolipov O'.Q., Barakayev M., Sharipov Sh.S. Kasb ta'limi pedagogikasi. – T.: 2003. - 88 b.
3. Tohirov O'.O. Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017. - 72 b.



ГУШТ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА МАХСУЛОТЛАРИДА МАХСУЛОТНИ КАЙТА ИШЛАШ.

Ешмуратов Марат Тангатарович

Қорақалпоқ давлат университети, ассистенти

Телефон: +998(90) 714 37 65

65marat.eshmuratov@mail.ru

Аннотация: Гўшт саноати хом ашёлар, материаллар ва моддий-техника ресурсларидан самарали фойдаланиш ҳамда гўшт-сут ва консерва маҳсулотлари ишлаб чиқаришда замонавий ресурс тежамкор инновацион технологияларни қўллаш, гўшт-сут ва консерва маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнларини оптималлаштириш, гўшт-сут ва консерва маҳсулотлари ишлаб чиқариш иш унумини ва маҳсулот сифатини ошириш, касбий фаолиятида ишлаб чиқариш воситалардан оқилона фойдаланиш усул ва услублари йиғиндисини ўз ичига олади.

Гўшт саноати корхоналарида маҳсулотни қайта ишлаш хом ашёсини асосан қишлоқ хўжалигида етиштирилаётган қорамоллар, шохли кичик хайвонлар ва чўчқалар ташкил этади. Булардан ташқари ноанъанавий бўлган туя, буғу, от ва паррандалар ҳам хом ашё сифатида ишлатилади. Гўшт маҳсулотларини қайта ишлашда, бошқа турдаги ишлаб чиқариш саноатлари каби керакли микдорда сифатли ва кенг ассортиментдаги маҳсулотни ишлаб чиқариш мақсади ётади. Хом ашёни қайта ишлаш нуқтаи назаридан, энг сифатли ва аввало юқори озуқавий қийматга эга, тўйимли ва шифобахш хусусиятларга эга маҳсулот ишлаб чиқариш талаб этилади. Шунинг учун хом ашёни қуйидаги хусусиятлари эътиборга лойик:

1. Соғлом хайвон.

2. Мушаклари яхши тараққий этган бирлаштирувчи тўқималари ва ёғ қатламларига эга бўлган, қисқача айтганда яхши боқилган бўлиши;

3. Устки қисмларида нуқсон бор-йўқлиги;

4. Турли хайвонларнинг сўйишга етилган ёш чегараси, озиқ-овқат саноатида сифатли маҳсулот олишнинг энг асосий шартларидан ҳисобланади.

5. Бўрдоқнинг энг юқори соф оғирлик кўрсаткичлари, биринчи навбатда гўшти, ёғи ва терисидир.

6. Сўйилган вазндги фойдали маҳсулотлар оғирлиги яъни, умумий оғирликдан олинган фойзнинг кўрсаткичи нисбатан катта бўлиши.

Гўштни сифати аввало хайвоннинг боқилган жойи, озуқаси, жинси, ёши ва унинг гўшт ҳолида келтирилиши - транспортировкасига боғлиқдир. Молнинг тоза ва яхши сўйилиб, ўз вақтида гўшт саноатининг қайта ишлов бериш корхоналарига келтирилиши, маҳсулотни қайта ишлаганда фойдалилик хусусиятлари сақланиб қолади. Молнинг сифатли сўйилиши нафакат гўшти, ёғи ва териси сифатда бўлибгина қолмай, ундаги керакли кимёвий моддалар ҳам сақланиб қолади. Юқоридаги кўрсаткичлар давлат стандарт даражасини аниқлаб беради ва гўшт саноатини ривожланишида муҳим ўрин тутди. Маҳсулотнинг сифатига нафакат юқоридаги кўрсаткичлари, балки, унинг сўйишдан олдинги шароити ва сўйишга тайёлаш ҳам таъсир этади.

Молнинг боқилиши, озуқасининг сифати, боқилаётган жойнинг тозаллиги, овқат бериш рационали, оч қолгунга қадар, уни сўйишга олиб келаётгандаги ҳаракатланиши, маҳсулот таркибидаги керакли моддаларнинг сақланиб қолишига ёки уни парчаланишга сабаб бўлади

Гўшт деб, териси шилиниб, бош-оёғи, ички аъзоларидан тозаланган хайвоннинг тана маҳсулотига айтилади. Яъни, гўшт маҳсулотлари тушунчаси орқали барча истеъмолга шнлатиладиган маҳсулотларга тушунилади. Кўпинча эса, гўшт деб факат лаҳм гўштгина тушунилади. Шунинг учун гўштни қийматини белгилашда унинг сифати ва унинг озуқавийлиги, бўлакларидаги таркибида бўлган ўзига хос жихатлари назарда тутилади.

Мушаклар (мускул тўқимаси) гўштни сифати ва асосий қисмини ташкил этади. Ҳар хил турдаги моллар гўштира шохдор бўрдоқлардан катта ёшли “қалмиқ” зотда буқалар етиштириб боқилгани 55% гўштлиги, етиштирмасдан боқилгани 51%, ёш бўрдоқи (2 ёшгача) “қалмиқ” буқаси ўртача боқилгани 58,19 % ва шундай боқилгани 51 %, грефорд зотда буқалар 70% гача, тўйдириб боқилмаган 2 ҳафталик бузоқчалар 54%, боқилган 4 ҳафталик бузоқчалар 61 %, қаттиқ - ўсиқ юнгли қўйлар 54,9 %, “қирғиз” зотли қўйларда 56,9



